

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-noyabr


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 10,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4964,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1958,7 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdag'i xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'limganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtida viloytda 15,3 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 10,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 68,0 % ni tashkil etdi.

**2018 yil 1 dekabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2018 yil 1 dekabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (34,5 %) yuqori ulushni egallaydi.

2018 yil 1 dekabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 10,2 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.

Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4964,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4964,0	109,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	307,6	113,2
molivaviy xizmatlar	591,4	147,3
transport xizmatlari	882,9	102,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	862,4	102,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	180,5	108,8
savdo xizmatlari	2043,2	105,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	150,4	102,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	138,5	119,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	54,8	112,1
ijara xizmatlari	132,4	120,4
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	157,8	102,4
shaxsiy xizmatlar	163,0	103,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,7	100,0
boshqa xizmatlar	114,8	100,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (2043,2 miln. so'mga), transport xizmatlar (892,9 miln. so'm), moliyaviy xizmatlari (591,4 miln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (307,6 trln.so'm), shaxsiy xizmatlar (180,5 miln.so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'limgan holda oshishi me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 3,5 miln.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (147,3 %), Ijara xizmatlar (120,4 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (119,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,2 %), yashash va ovqatlanishxizmatlar (108,8 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik sohasidagi xizmatlar (100,0%), boshqa xizmatlar (100,8 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (102,4 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi 41,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (18,0 %), moliyaviy xizmatlar (11,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Sog'liqni saqlash sohasidagi bo'yicha nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan xizmatlar lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimas (1,1 %) ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1958,7 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 323,3 ming.so'mga oshdi.

